

**GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH
YO'LLARI**

Ro'ziboyev Dilshod A'zam o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti katta o'qituvchisi

Abdullayev Xurshid

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali global muammolarning paydo bo'lishi, mohiyati va ularni bashorat qilishning ahamiyati, global muammolarning rivojlanayotgan mamlakatlarga, texnika va texnologiyalarining jarayonlariga va atrof-muhitning degradatsiyasiga ta'siri yoritiladi. ijtimoiy

Kalit so'zlar: axborotlashuvi, globallashuv, tarix, mintaqa, fan va texnika taraqqiyoti, siyosiy-huquqiy, umumiylik, xususiylik, sanoat xomashyosi, energiya.

Globallashuv jarayonining ildizlarini ilk kapitalizm davrida shakllana boshlagan jahon iqtisodiy bozorining rivojlanishida izlash lozim. Ma'lumki, mazkur jarayon feodal parokandalikni bartaraf etib, iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishiga zamin yaratdi. Jahon iqtisodiy tizimining shakllanishi xalqaro kartellar, sindikatlar va zamonaviy transnatsional korporatsiyalar kabi iqtisodiy birliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyatning tobora axborotlashuvi insoniyatni yagona ijtimoiy-madaniy tizimga birlashtiruvchi omilga aylandi. Bugungi kunda insoniyat tarixiy va axborot maydoni bo'yicha universal birlik sari intilmoqda. Bu holat jahon tarixida ilk bor butun insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan yangi ijtimoiy-madaniy omillarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv mohiyatan har bir inson, davlat va umuman jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydigan, faqat hamkorlik asosida yechimi topiladigan muammolar majmuasini o'z ichiga oladi. Uning asosiy ziddiyati umuminsoniy turmush tarzi bilan milliy turmush tarzi o'rtasidagi tafovutlarni uyg'unlashtirish ehtiyoji bilan bog'liq. Shunga qaramay, globallashuv

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

umumbashariy qadriyatlar asosida barcha xalqlar tomonidan qabul qilinadigan ijobjiy xususiyatlarni umumlashtirishga asoslanadi. Har bir xalq o‘zining milliy xususiyatlarini saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlarga moslashmog‘i lozim. Taniqli olim L.E. Grininning ta’kidlashicha, “Globallashuv – bu mintaqalar va jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir.” U globallashuvni jarayon sifatida ko‘rib, quyidagicha tariflaydi: “Globallashuv – bu shunday jarayondirki, uning natijasida dunyo o‘zining barcha subyektlari bilan yanada bog‘liq va o‘zaro aloqador bo‘lib boradi.” Zamonaviy global muammolar – bu butun insoniyat taraqqiyoti va hayoti bilan bog‘liq dolzarb masalalardir. Ular orasida termoyadro urushi xavfini bartaraf etish, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ochlik, qashshoqlik, savodsizlik, ekologik halokatlar, resurslar taqchilligi va ilm-fan taraqqiyotining salbiy oqibatlariga qarshi chora ko‘rish kabi muammolar mavjud. Globallashuv – bu turli mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy, ma’naviy aloqalarning kuchayishi jarayonidir. Bu borada fransuz tadqiqotchisi B. Bandi quyidagi belgilarni ta’kidlaydi:

- globallashuv – bu doimiy davom etuvchi tarixiy jarayon;
- bu – jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- bu – milliy chegaralarning asta-sekin "yuvinib ketish" jarayoni.

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini aks ettirmoqda. Dunyodagi xalqlar mavjud global muammolarga qarshi mustaqil kurasha olmay, ularni faqat o‘zaro hamkorlik orqali bartaraf eta oladi. Ushbu jarayon dastlab iqtisodiy sohalarda boshlangan bo‘lsa, hozirda siyosat, axloq, madaniyat va kundalik hayotga ham chuqr ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi” tamoyili asosida ishlab chiqilgan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ijtimoiy-falsafiy sohada muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya Yangi O‘zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-ma’rifiy asoslarini

belgilaydi va zamonaviy talablarga javob beradigan islohotlarni jadallashtirishga xizmat qiladi. 2017 yil 19 sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMTning global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi, terrorizm, narkotrafik va boshqa global tahdidlarga qarshi kurashdagi o‘rni haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. Bu dolzarb masalalarni hal etishda rivojlangan davlatlar tomonidan katta moliyaviy va tashkiliy resurslar safarbar qilinmoqda. Global muammolar nafaqat butun dunyoga, balki mintaqalarga, ayrim davlatlarga ham taalluqlidir. Ilmiy adabiyotlarda ular umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan global muammolar bilan mahalliy yoki mintaqaviy muammolarni farqlash zarurati ta’kidlanadi. Ushbu farqlashda asosiy mezon sifatida ularning makon bilan bog‘liqligi, ya’ni geografik omil e’tiborga olinadi. Xususiy muammolar davlatning ayrim faoliyat yo‘nalishlariga yoki kichik hududlarga tegishli bo‘lib, ular mahalliy avariylar, ijtimoiy ziddiyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mahalliy muammolar esa yirik zilzilalar, suv toshqinlari yoki ichki nizolar kabi muammolarni o‘z ichiga oladi. Milliy muammolar muayyan davlat yoki millatning ijtimoiy-siyosiy muammolarini ifodalasa, mintaqaviy muammolar kengroq hududlarni – qit’alarni yoki bir nechta davlatlarni qamrab oladi. Masalan, Chernobil fojiasi yoki global iqlim o‘zgarishlari bunga misoldir. Xulosa qilib aytganda, global muammolarni tahlil qilishda ularning miqyosini, ta’sir doirasini va ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglash lozim. Har bir darajadagi muammo o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni yechish uchun turli darajadagi hamkorlik va yondashuvlar zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 22 dekabr 2017 yil. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017.
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
3. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. Toshkent: O‘zbekiston,

2018

4. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlod. 2008.
5. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat - globallashuvning g'oyaviy asosi. - T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
6. Nishonova N. Falsfa - O'quv qo'llanma – Toshkent: TDTU, 2023.
7. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
8. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
9. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(2), 52-58.
10. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.
11. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
12. Nomozov, Xurshid (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 229-231.
13. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'linda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 632-636.
14. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROTNING ZAMONAVIY TARKIBI." *Ta'linda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41.1 (2025): 628-631.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

15. Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
16. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.